

XIZMATLAR SOHASINI YAXSHILASH VA INNOVATSION
XIZMATLARNI YARATISH

Termiz davlat universiteti, o'qituvchi

Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li

amaliysuxrob@gmail.com +998919705155

Termiz davlat universiteti, talaba

Allamurodova Zuxra Alibekovna

allamurodovazuxra7@mail.ru +998990540057

ABSTRACT:

In order to turn independent Uzbekistan into a developing New Uzbekistan, according to the orders of our country's president Shavkat Mirziyoyev, various changes are being made in every field and new innovative ideas are being introduced. From this point of view, the large-scale organizational and legal measures taken to fundamentally improve the quality and convenience of service provision, as well as the implementation of the tasks set to improve the business environment and create favorable conditions for conducting business activities of the service sector provides rapid development. This article describes how to improve the service industry and create innovative services.

Keywords: financial services, market services, insurance services, national strategy, transport and trade services, communication and information services, statistical agencies.

ANOTATSIYA:

Mustaqil O'zbekistonni rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonga aylantirish yo'lida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning buyruqlariga binoan xar bir sohada turli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda va yangi innovatsion g'oyalar kiritilmoqda. Shu nuqtai nazaridan Xizmatlar ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. Ushbu maqolada xizmatlar sohasini yaxshilash va innovatsion xizmatlarni yaratish haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: moliyaviy xizmatlar, bozor xizmatlari, sug'urta xizmatlari, milliy strategiya, transport va savdo xizmatlari, aloqa va axbarotlashtirish xizmatlari, statistika agentliklari.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.

Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Statistika agentliklarining ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi 25,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari 23,7 %, savdo xizmatlari 23,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,7 %, ta'lim xizmatlari 3,7 % darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi 1,3 % darajasida qayd etildi. Foiz ulushlari nuqtai nazaridan moliyaviy xizmatlar sohasining hajmi yuqori o'rinning egallaydi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 431,2 mlrd. so'mga oshib, 7 656,9mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi 25,3 % ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 117,3 % ni tashkil etdi.

Shuni ta'kidlash joizki, Moliyaviy xizmatlarni ommabopligini yanada oshirish maqsadida Milliy strategiya tasdiqlandi. Milliy strategiyaning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlari va kichik biznes subyektlari uchun arzon va yuqori sifatli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan dinamik, innovatsion va inklyuziv moliya tizimini yaratishdan iborat.

So'nggi yillarda bank-moliya tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, ayrim jihatlari moliyaviy xizmatlar ommabopligi

darajasining jadal sur'atlarda o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, mamlakat bank-moliya sektorining davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yuqori darajada ekanligi, bank sektorining ustun mavqei va normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklar sohada raqobat va innovatsiyalarni cheklamoqda; moliyaviy texnologik (fintex) kompaniyalar, nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va lizing kompaniyalari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ular banklarga raqobatchi bo'la olmayapti; xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ularning qamrovini oshirishda zamonaviy texnologiya yutuqlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti; moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish bo'yicha ko'rilgan choralarda asosan iste'molchilar manfaatlari ko'zlanib, xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy manfaatdorligiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo'mita-yangiliklar/35205-moliyaviy-xizmatlar-tarkibi-3>
2. <https://yuz.uz/uz/news/moliyaviy-xizmatlar-ommabopligini-oshirish-milliy-strategiyasi-tasdiqlandi>
3. Шеремет А.Д., Щербакова Г.Н. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: Финансы и статистика, 2001. - С.23
4. www.moodys.com; www.fitchratings.com; www.spglobal.com –Xalqaro reyting agentliklar rasmiy saytlari.
5. <https://openinfo.uz> Iqtisodiyot va moliya vazirligi korporativ axborot yagona portali.
6. Yalg'ashov, A., & Xuramov, S. (2022). ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DIGITAL ECONOMY. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 1005-1008.